



TALABALARGA GRAFIKA ASOSLARINI O'RGATISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY ASOSLARI

Ismatullayeva Shaxrizoda Shuhrat qizi

O'zMPU "Tasviriy san'at" mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17911694>

Annotatsiya

Ushbu maqolada grafika fanini o'qitish jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish va ularni takkomilashtirishdagi ilmiy asoslar tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida interaktiv, axborot-kommunikatsion va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarning grafik tafakkurini rivojlantirish, mustaqil ijodiy faoliyatini faollashtirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, maqolada grafika fanining ta'limdagi o'rni, zamonaviy metodlarning samaradorligi va o'qituvchining yangi pedagogik yondashuvlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: grafika, innovatsion metodlar, o'qitish texnologiyasi, raqamli ta'lim, interfaol yondashuv, Xurshid Ziyaxonov, Lekim Ibragimov .

Научные основы использования инновационных методов в обучении студентов основам графики

Аннотация


В данной статье рассматриваются научные основы использования инновационных методов при преподавании основ графики. Анализируется применение интерактивных, информационно-коммуникационных и цифровых технологий в образовательном процессе с целью развития графического мышления студентов и активизации их творческой самостоятельности. Также раскрывается роль дисциплины графика в системе образования и эффективность современных педагогических подходов.

Ключевые слова: графика, инновационные методы, образовательные технологии, цифровое обучение, интерактивный подход Хуршид Зияханов, Леким Ибрагимов.

Scientific Foundations of Using Innovative Methods in Teaching the Basics of Graphics to Students

Abstract:

This article analyzes the scientific foundations of using innovative methods in teaching the fundamentals of graphics. It discusses how interactive, information-communication, and digital technologies enhance students' graphic thinking and promote independent creative activity. The paper also highlights the






role of the graphics discipline in education and the effectiveness of modern pedagogical approaches.

Keywords: graphics, innovative methods, educational technology, digital learning, interactive approach, Khurshid Ziyakhonov, Lekim Ibragimov.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimi innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va kreativ yondashuvlar asosida jadal rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yosh avlodni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar va ijodiy ta'lim metodlari keng joriy etilmoqda.

Grafika fani — tasviriy san'at tizimining nazariy va amaliy asoslarini o'rgatuvchi fanlardan biridir. Ushbu fan orqali talabalar kompozitsiya, proporsiya, shakl, rang va konstruktiv fikrlash elementlarini puxta egallaydilar. Shu bilan birga, grafika o'qitish jarayoni nafaqat rasm chizish ko'nikmasini, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va badiiy muammolarni hal etish malakasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Ammo an'anaviy o'qitish usullari ko'p hollarda o'quvchi yoki talabani passiv tinglovchi sifatida shakllantiradi. Natijada, talaba o'qituvchi bergan topshiriqlarni mexanik tarzda bajaradi, biroq ijodiy fikr yuritish va yangi g'oya yaratish jarayonida faol ishtirok etmaydi. Shu sababli, so'nggi yillarda grafika ta'limida innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash dolzarb masalaga aylandi.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovations" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi"[3,169- bet] A.I. Prigojinning fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boyitib borish tushunilishi lozim. Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs – fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.





Amerikalik psixolog E. Rodjers o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorgarlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'limdir. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardir. Innovatsion metodlar — bu ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni kiritish, talabalarni faol o'quv subyekti sifatida shakllantirish, ularning mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullardir. Masalan, interfaol dars usullari, raqamli o'qitish texnologiyalari, loyiha asosidagi ta'lim, vizual ko'rgazmali o'qitish va multimedia vositalaridan foydalanish grafikani o'qitish jarayonini sezilarli darajada jonlantiradi.

Bugungi kunda grafikani o'qitishda zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanish bilan bir qatorda, taniqli o'zbek rassomlarining ijodiy tajribasi va badiiy merosiga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Xurshid Ziyaxonov va Lekim Ibragimov ijodlari yosh rassomlar uchun o'rnak va ilhom manbai hisoblanadi.

Xurshid Ziyaxonov — zamonaviy o'zbek grafikasining yorqin vakili, kitob grafikasi, tasviriy san'at va eksperimental kompozitsiya yo'nalishida faoliyat yuritib kelayotgan ijodkor. Uning asarlarida milliy ruh, sharqona ifoda va geometrik kompozitsiyalar uyg'unligi muhim o'rin tutadi. Ziyaxonov "sharq kubizmi" yo'nalishining o'ziga xos vakili sifatida, grafik chiziqlar, kontrastlar, milliy naqshlar va ramziy obrazlar orqali badiiy g'oyani yetkazadi. Uning ishlari grafikani o'qitish jarayonida kompozitsion muvozanat, ritm, chiziqning hissiy ifodasi va milliy estetikani o'rganish uchun amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Talabalarga Ziyaxonov ijodi asosida chiziqlar orqali mazmunni yetkazish, matn va tasvir o'rtasidagi uyg'unlikni o'rganish, milliy grafik motivlarni zamonaviy





uslubda qayta talqin etish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Shuningdek, u kitob grafikasi sohasida ham samarali ijod qilgan bo'lib, bu yo'nalish orqali talabalarda badiiy matnni vizual shaklda ifodalash ko'nikmasi shakllanadi. Ziyaxonov ijodini o'rganish yosh grafiklar uchun nafaqat texnik mahorat, balki milliy identitet va badiiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

Professor, O'zbekiston xalq rassomi Lekim Ibragimov — o'zbek tasviriy san'ati va grafikasida xalqaro miqyosda tan olingan ijodkor. Uning asarlarida Sharq falsafasi, g'arb san'ati, modernizm va ramziy poetika uyg'unlashgan. Ibragimovning mashhur "Mingta farishta va bir kartina" nomli loyihasi inson ruhiyatining cheksizligi, san'atning yagona til sifatida insoniyatni birlashtiruvchi kuchi haqida chuqur falsafiy g'oyani ifodalaydi. Grafika o'qitish jarayonida Ibragimov ijodini tahlil qilish orqali talabalarga rang, kompozitsiya, plastika va obrazli tafakkurni rivojlantirish mumkin. Uning ishlari talabalarga badiiy ramzlar, shakl tili va abstrakt ifoda orqali g'oya yetkazish imkonini o'rgatadi. Bundan tashqari, Ibragimov o'z asarlarida milliy ruhiyat va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirib, yosh rassomlar uchun san'atning falsafiy mazmunini tushunish imkonini yaratadi. Uning ijodi grafikani o'qitishda tasviriy kompozitsiya, chiziq dinamikasi, rang uyg'unligi va badiiy tafakkurni shakllantirishda boy manba hisoblanadi. Grafik ta'limda san'atkorlar tajribasidan foydalanishning ahamiyati Ziyaxonov va Ibragimov ijodlari o'rganilganda, talabalarda mustaqil fikrlash, kompozitsion yechim topish, ramziy obrazlar yaratish va milliy estetikani anglash ko'nikmalari rivojlanadi. Ularning ishlarini grafik mashg'ulotlarga kiritish orqali ta'lim jarayoni nafaqat nazariy, balki estetik, falsafiy va ma'naviy jihatdan ham boyitiladi.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlangan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmuni yoritilgan. Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-





o'zidan tizim sifatida yangilik kiritish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantiqini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi. [4, 14-bet]

Shuningdek, zamonaviy grafik ta'limda CorelDRAW, Adobe Illustrator, Photoshop kabi dasturlardan foydalanish talabalarga nafaqat qo'lda chizish, balki raqamli dizayn ko'nikmalarini ham o'zlashtirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish hamda ularni bozor iqtisodiyoti talablariga mos mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, grafika asoslarini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish nafaqat o'qitish samaradorligini oshiradi, balki talabalarning kasbiy, ijodiy va shaxsiy rivojlanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun u o'z pedagogik faoliyatida innovatsion metodlarni puxta o'zlashtirib, ularni amaliyotga to'g'ri tatbiq eta olishi zarur. Innovatsion metodlar deganda o'qitish jarayonida yangi texnologiyalarni, interfaol mashg'ulotlarni, axborot-kommunikatsiya vositalarini va kreativ yondashuvlarni qo'llash tushuniladi. Grafika fanlarini o'qitishda quyidagi innovatsion metodlar samarali hisoblanadi: interfaol darslar, multimedia texnologiyalari bilan ishlash, onlayn ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, shuningdek amaliy loyihalar asosida o'qitish (project-based learning). Ushbu metodlar yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladi, balki amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi. Innovatsion yondashuvlar o'qituvchi faoliyatining kreativligini oshiradi. O'qituvchi talabalarga grafik topshiriqlarni individual va guruhviy tarzda bajarish imkonini berib, ularni mustaqil izlanishga undaydi. Bu jarayonlarda "aqliy hujum", "klaster", "insert", "konseptual xarita", "elektron portfolio" kabi metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Ushbu metodlar talabalarning o'z fikrini erkin ifoda etishiga, ijodiy yondashishiga va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, grafik topshiriqlarni bajarishda "project-based learning" (loyiha asosida o'qitish) metodini qo'llash orqali talabalarga amaliy loyihalar beriladi — masalan, bolalar kitobi uchun illyustratsiya yaratish, plakat dizayni, muqova ishlanmasi, afisha yoki logotip tayyorlash. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning nafaqat grafik bilimini, balki tasviriy san'atga bo'lgan badiiy yondashuvini ham rivojlantiradi.

Art-terapiya — bu inson ruhiy holatini san'at vositalari orqali yumshatish, stressni kamaytirish, o'zini anglashni kuchaytirish va ijodiy fikrlashni faollashtirishga qaratilgan metodik yo'nalishdir. Grafika darslarida art-terapiya





elementlaridan foydalanish talabalar uchun ijodiy erkinlik yaratadi. Masalan, erkin chizish, kollej (collage), rangsiz shakllar orqali hisni ifodalash, fantaziya asosida chizma yaratish kabi mashg'ulotlar nafaqat badiiy ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki talabalarning ruhiy holatini muvozanatlashtiradi, stressni kamaytiradi va o'z fikrini san'at orqali ifodalash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida grafikani yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Art-terapiya usullari orqali talabalar grafik san'atni faqat texnik yo'nalish sifatida emas, balki ruhiy va hissiy o'zini ifoda etish vositasi sifatida ham qabul qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar / Ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009. – 160 b.
2. Axmedov N. "Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim metodlari" – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M. Aminov va b. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 169-bet.
4. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – Toshkent: 2015. – 208 bet.
5. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsiya. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2010.

